

# **“LOANID”-sonli ONLAYN MIKROKREDIT SHARTNOMASI**

Toshkent sh.

“Date” yil

“TBC Bank” aksiyadorlik tijorat banki nomidan Ustav asosida ish yurituvchi “DisbursementResponsiblePerson” (keyingi o‘rinlarda “Bank” deb ataladi) bir tomonidan va “Full\_name” YaTT nomidan “certificate\_number”-sonli Guvohnoma asosida ish yurituvchi “Full\_name” (keyingi o‘rinlarda “Qarz oluvchi” deb ataladi) ikkinchi tomonidan, birgalikda “Tomonlar” deb ataladi, mazkur onlayn mikrokredit shartnomasini (keyingi o‘rinlarda “Shartnoma” deb ataladi) quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar:

## **1. ATAMALAR VA TA’RIFLAR, TALQIN QILISH QOIDALARI**

1.1. **Bank** – “TBC Bank” aksiyadorlik tijorat banki. Litsenziya O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 17.03.2022-yilda 86-son bilan berilgan.

1.2. **Qarz oluvchi** – Bankning kredit mahsulotini olish uchun arizani muvaffaqiyatli topshirgan yakka tartibdagi tadbirkor maqomiga ega bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

1.3. **Shartnoma** – mazkur Mikrokredit shartnomasi.

1.4. **Jadval** - ushbu Shartnomaga muvofiq Kreditni to‘lash jadvali.

1.5. **Kredit** - Bankning ushbu Mikrokredit shartnomasi shartlariga ko‘ra taqdim etiladigan moliyaviy “Mikrokredit” mahsuloti.

1.6. **Kredit summasi** - Qarz oluvchiga beriladigan, maqsadli xususiyatga ega bo‘lgan va Qarz oluvchi Shartnomada ko‘rsatilgan shartlar asosida kredit summasini qaytariladigan to‘lovlar shaklida qaytarish yoki to‘lash majburiyatini olgan kredit.

1.7. **Foiz** – Kredit summasidan foydalanganlik uchun Shartnoma va Jadval asosida Qarz oluvchi tomonidan Bankka to‘lanadigan haq. Foizlar Shartnoma tuzilgan kundan boshlab (shu kunni o‘z ichiga olgan holda) to Shartnomadan kelib chiqadigan To‘lov jadvaliga muvofiq oxirgi badal to‘lanadigan sanagacha (bu kunni o‘z ichiga olmagan holda) hisoblanadi va to‘lanishi lozim.

1.8. **MBX** - TBC Business masofaviy xizmat ko‘rsatish tizimi bo‘lib, u orqali Qarz oluvchi o‘z krediti bo‘yicha boshqa ma’lumotlarni ko‘rish, boshqarish, to‘lash va tasarruf etish imkoniyatiga ega.

1.9. **To‘lovlar** - Qarz oluvchi tomonidan Jadvalga muvofiq kiritiladigan to‘lovlar bo‘lib, ularga Shartnomada belgilangan foizlar va boshqa to‘lovlar qo‘siladi.

1.10. **Tomonlar** - Bank va Qarz oluvchi

1.11. **Uchinchi shaxs** - Tomon hisoblanmaydigan har qanday jismoniy yoki yuridik shaxsni (shu jumladan, cheklanmagan holda: davlat organlari va muassasalari, mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, mustaqil huquq subyekti maqomiga ega bo‘lmagan shaxslar yoki birlashmalar)

anglatadi.

- 1.12. “Kunlar” so‘zi ostida kalendar kunlari nazarda tutiladi;
- 1.13. Modda, band yoki ilovaga havola ushbu Ofertadagi modda, band yoki ilovaga qilingan havolani anglatadi;
- 1.14. “Yozma shakl”, “yozma” yoki “yozma ravishda” iboralardan har qanday foydalanilishi so‘zlarni doimiy (jismoniy, o‘chirib bo‘lmaydigan) yozma shaklda ifodalashning istalgan usulini anglatadi, shubhalardan qochish uchun elektron pochta xabarlarini istisno qilgan holda;
- 1.15. “Shaxs” so‘zi ostida har qanday kompaniya, korporatsiya, shirkat, qo‘shma korxona, firma, boshqa har qanday yuridik shaxs, uyushma, davlat organi, shuningdek, jismoniy shaxs tushuniladi;
- 1.16. “Shu jumladan”, “shuningdek” va “o‘z ichiga olgan” so‘zlari sanab o‘tilganlar bilan cheklanmagan holda talqin qilinadi;
- 1.17. Birlik shaklidagi so‘zlar ko‘plik ma’nosini ham, ko‘plik shaklidagi so‘zlar esa birlik ma’nosini ham anglatadi; va
- 1.18. Oferta moddalarining sarlavhalari faqat o‘qishni osonlashtirish uchun keltirilgan bo‘lib, ulardan Oferta mazmunini talqin qilish uchun foydalanilmasligi lozim.

## **2. ASOSIY SHARTLAR**

2.1. Shartnoma shartlariga ko‘ra Bank Qarz oluvchiga ariza/so‘rovga muvofiq Bank tomonidan tasdiqlangan miqdorda onlayn mikrokredit taqdim etadi. Qarz oluvchi esa olingan summani to‘liq hajmda Bankka qaytarish va ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq undan foydalanganligi uchun foizlarni to‘lash majburiyatini oladi.

2.2. **Kredit summasi:** \_\_\_\_\_;

2.3. **Kreditning muddati:** \_\_\_\_\_;

2.4. **Kredit valyutasi:** O‘zbek so‘mi;

2.5. **Kreditning maqsadi:** Biznesni rivojlantirish;

2.6. **Shakli:** Bankdagи hisob raqamiga o‘tkazish orqali;

2.7. **To‘lov tartibi:** Jadvalga muvofiq oylik to‘lovlar bilan;

2.8. **Asosiy qarz qoldig‘iga foizlar:** \_\_\_\_\_;

2.9. **Muddati o‘tgan asosiy qarz qoldig‘iga foizlar:** \_\_\_\_\_;

2.10. Kredit berish uchun Qarz oluvchiga Bankda tegishli hisob raqami ochiladi.

2.11. Kredit qaytarishlik, to‘lovlik, muddatlilik va maqsadli yo‘naltirilganlik shartlarida beriladi.

## **3. KREDITNI QAYTARISH**

3.1. Kredit bo‘yicha asosiy qarz summasini to‘lash uning ajralmas qismi bo‘lgan MBXning tegishli bo‘limida keltirilgan jadvalga muvofiq amalga oshiriladi.

3.2. Agar kreditni qaytarish sanasi bank ish kuni bo‘lmasa, u holda kreditni qaytarish keyingi bank ish kuniga ko‘chiriladi.

3.3. Asosiy qarz bo‘yicha qarzdorlik qoldig‘iga foizlar har kuni ish kuni oxirida bir yilda 365 kun va har oydagи kunlarning haqiqiy sonidan kelib chiqqan holda hisoblanadi. Foizlar hisoblanishi

kreditning birinchi summasi berilgan kundan boshlanadi.

3.4. Qarz oluvchi ushbu Sharhnomaga shartlariga muvofiq hisoblangan kreditdan foydalanganlik uchun Bankka foizlar to'laydi. To'lov sanasi Bank tomonidan avtomat tarzda belgilanadi va MBXning tegishli bo'limida Qarz oluvchiga xabar beriladi.

3.5. Asosiy qarz, foizlar, kredit bo'yicha komissiya va/yoki boshqa to'lovlarni to'lash Qarz oluvchining to'lov topshiriqnomalarini Bank tomonidan bajarish, Bankning to'lov talablarini bajarish va/yoki Bank tomonidan Qarz oluvchining barcha hisobvaraqlaridan memorial orderlar orqali mustaqil ravishda mablag'larni yechib olish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3.6. Qarz oluvchi asosiy qarzni to'lash, foizlarni to'lash bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan va/yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, shuningdek, ushbu Sharhnomaga ko'ra Qarz oluvchining majburiyati bo'yicha to'lov muddati kelganda, Bank O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga muvofiq zarur pul mablag'larini Qarz oluvchining farmoyishisiz (akseptsiz tartibda) hisobdan chiqarish huquqini o'zida saqlab qoladi. Ushbu orqali Qarz oluvchi Bankka o'zining barcha hisobvaraqlaridan mazkur Sharhnomaga bo'yicha tegishli summalarini so'zsiz va qaytarib bo'lmaydigan tarzda, Qarz oluvchining farmoyishisiz, akseptsiz tartibda yechib olish huquqini beradi.

3.7. Qarz oluvchi tomonidan kredit muddatidan oldin qaytarilganda, ushbu qaytarish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- 1.hisoblangan foizlarning to'lov kunidagi qoldig'i;
- 2.asosiy qarz summasining qoldig'i.

3.8. Kredit bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun amalga oshirilgan to'lov yetarli bo'limgan taqdirda, Qarz oluvchining qarzdorligi quyidagi tartibda to'lanadi:

1. asosiy qarz bo'yicha mutanosib ravishda muddati o'tgan qarzdorlik va muddati o'tgan foiz to'lovlari;
- 2.joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzdorlik;
- 3.neustoyka (jarima, penya);
- 4.Bankning qarzdorlikni to'lash bilan bog'liq boshqa xarajatlari;

#### **4. BANK HUQUQLARI**

4.1. Kreditlash jarayonida Bank Qarz oluvchidan quyidagilarni talab qilish huquqiga ega: Qarz oluvchining moliyaviy-xo'jalik faoliyati holati, buxgalteriya hisobi va hisoboti, kreditdan maqsadli foydalilanilganligi, kreditning qaytarilishini ta'minlash to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish. Shuningdek, Bank bevosita Qarz oluvchida maqsadli tekshiruvlar o'tkazish huquqiga ham ega.

4.2. Asosiy qarzni, foizlarni yoki boshqa har qanday summani o'z vaqtida to'lash xavfini kamaytirish uchun Bank asosiy qarzni, foizlarni va/yoki boshqa har qanday summani to'lash muddati kelishidan 5 (besh) bank kuni oldin Qarz oluvchining kreditini to'lash uchun jamg'arma hisobvarag'ida (29801) mablag'larni to'plash huquqiga ega. Bu davrda asosiy depozit hisobvarag'i bo'yicha barcha xarajat operatsiyalarini Qarz oluvchi Bank bilan kelishib oladi.

4.3. Qarz oluvchidan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida mol-mulkni garovga

qo‘yishni talab qilish. Bunda garov shartlari Tomonlar o‘rtasida tuziladigan alohida kelishuv bilan tartibga solinadi.

4.4. Bank quyidagi hollarda Qarz oluvchidan Kreditni muddatidan oldin (hisoblangan foizlarni hisobga olgan holda) qaytarishni talab qilishga haqli:

- Bank tomonidan Qarz oluvchi tomonidan kredit mablag‘laridan maqsadga nomuvofiq foydalilanilganligi holatlari aniqlanganda;
- kredit bo‘yicha foizlar va asosiy qarz hamda boshqa to‘lovlar 1 (bir) kundan ortiq muddatga o‘z vaqtida to‘lanmaganda,
- Qarz oluvchi tomonidan o‘z zimmasiga olingan majburiyatlar bajarilishi ta’milanmaganda va/yoki ijro etilmaganda va/yoki lozim darajada bajarilmaganda;
- Bankning fikriga ko‘ra kredit maqsadiga erishishga yoki Qarz oluvchining Shartnoma bo‘yicha to‘lov majburiyatlarini bajarishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan voqealar yuz bergen bo‘lsa;
- kreditni ta’minlash bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaganda;
- Shartnoma tuzilgandan so‘ng taqdim etilgan ma’lumot va hisobotlarning haqiqatga to‘g‘ri kelmasligi, bu esa kreditning qaytarilishiga ta’sir qilishi mumkinligi aniqlangan holatlarda.
- Qarz oluvchining moliyaviy ahvoli yomonlashganda (zararlar, nolikvid balans va boshqalar), uning to‘lovga layoqatsiz deb topilganda;
- ta’mnotin taqdim etmaganda, shuningdek, ushbu Shartnomaga muvofiq qo‘sishimcha ta’mnotin taqdim etmaganda;
- Qarz oluvchining bank nazoratidan bo‘yin tovlaganda, Bankka hisobot ma’lumotlarini taqdim etmaganda;
- ta’mnotin qadrsizlanishi yoki ta’mnotin haqiqiy emas deb topish xavfining yuzaga kelishi, shu jumladan ta’mnotin predmetiga zarar yetkazilishi yoki yo‘qolishi;
- Kredit bo‘yicha mablag‘larni qaytarmaslik xavfini oshiruvchi har qanday omillarning yuzaga kelishi.

4.5. Yuqorida ko‘rsatilgan majburiyatlarni bajarmaslik holatlari yuzaga kelganda, Bank quyidagi harakatlardan birini amalga oshirishga haqli:

- vaziyatni tuzatish uchun Qarz oluvchiga da’vo xatini yuborish;
- ushbu Shartnoma bo‘yicha kreditlashni va/yoki yangi kreditlar berishni to‘xtatish;
- kredit bo‘yicha asosiy qarzni, foizlarni va boshqa to‘lovlarni muddatidan oldin, shu jumladan undiruvni ta’mnotinga va/yoki uning bir qismiga qaratish yo‘li bilan undirish;
- kredit bo‘yicha qarzdorlikni to‘lash uchun Qarz oluvchining Bankdagi va boshqa tijorat banklaridagi barcha hisobvaraqlaridan mablag‘larni so‘zsiz tartibda hisobdan chiqarish.

4.6. O‘z xohishiga ko‘ra Qarz oluvchini xabardor qilmasdan o‘z mablag‘lari hisobidan kreditning qaytarmaslik xavfini sug‘urtalash.

4.7. Ushbu Shartnoma shartlari va Qarz oluvchi tomonidan mazkur Shartnoma bo‘yicha

majburiyatlarning bajarilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Kredit byurosiga hamda Kredit axborotining davlat reyestriga taqdim etish.

## **5. BANKNING MAJBURIYATLARI**

5.1. Ushbu Shartnomaga imzolangan kundan boshlab 10 (o‘n) ish kuni ichida Qarz oluvchiga kredit berish.

5.2. Qarz oluvchini kreditning muddatidan oldin undirilishi va uning sabablari haqida xabardor qilish.

## **6. QARZ OLUVCHINING HUQUQLARI**

6.1. Shartnomaga tuzilgandan so‘ng pul mablag‘larini kiritishga rozilik bergunga qadar bo‘lgan davrda Kredit olishdan bepul asosda voz kechish.

6.2. Bankni ogohlantirgan holda jarima sanksiyalarini undirmasdan istalgan vaqtida kredit bo‘yicha qarzdorlikni muddatidan oldin to‘lash.

6.3. Bankdan kreditlash masalalariga oid bank qonunchiligi bo‘yicha zarur maslahatlar olish, O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari va Bankning kreditlash va hisob-kitoblar masalalari bo‘yicha ichki me’yoriy hujjatlaridagi o‘zgarishlar to‘g‘risida Bankdan axborot olish.

## **7. QARZ OLUVCHINING MAJBURIYATLARI**

7.1. Ushbu Shartnomada belgilangan muddatda kreditning o‘z vaqtida va to‘liq qaytarilishini, shuningdek, hisoblangan foizlar, vositachilik haqi va boshqa to‘lov larning to‘lanishini ta’minalash lozim.

7.2. Kreditdan maqsadli foydalanish. Kreditdan foydalanish jarayonida kreditlashning asosiy quyidagi tamoyillariga rioya qilish: muddatilik, qaytarishlik, maqsadlilik, to‘lovilik, kredit qaytarilishining ta’minalanganligi.

7.3. Bank xodimlarini maqsadli tekshiruvlar (moliyaviy holat, buxgalteriya hisobi va hisoboti, kreditdan maqsadli foydalanish, kreditlangan tovar-moddiy boyliklar va garovga qo‘ylgan mulkning saqlanishi masalalari bo‘yicha) o‘tkazish uchun xizmat ko‘rsatish, ishlab chiqarish, ombor va boshqa xonalarga kiritishga ruxsat berish, shuningdek, ularning talabiga binoan dastlabki hisobot va buxgalteriya hujjatlariga kirish imkoniyatini ta’minalash. Maqsadli tekshiruvlar soni va ularning muddatlari Bank tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi va Qarz oluvchiga oldindan ma’lum qilinadi.

7.4. Qarz oluvchining moliyaviy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan har qanday jiddiy noqulay o‘zgarish yoki yuzaga kelgan vaziyat haqida, Shartnomaga bo‘yicha Qarz oluvchi zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarmaslik ehtimoli bo‘lgan har qanday holat to‘g‘risida, shuningdek, o‘zining tashkiliy-huquqiy shaklini o‘zgartirish yoki boshqa qayta tashkil etish, tugatish rejali haqida Bankni oldindan xabardor qilish.

7.5. Agar Bank tomonidan so‘ralgan hisobot turi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talabiga ko‘ra Qarz oluvchi tomonidan tuzilayotgan bo‘lsa, uning talabiga ko‘ra Bankka buxgalteriya, balans va moliyaviy hisobotlarni taqdim etish;

7.6. Ushbu Shartnomaning amal qilish muddati davomida Qarz oluvchi:

- o‘zining malakali va tajribali rahbariyati nazorati ostida qonun hujjatlariga, umume’tirof etilgan tamoyillarga hamda sog‘lom amaliyatga muvofiq ravishda o‘z faoliyatini tegishli

darajada samarali tarzda (biznesni yuritish) amalga oshirish;

- o‘z mulki, asbob-uskunalarini va boshqa mol-mulkini me’yoriy holatda saqlab turish (asosiy fondlardan foydalanish);
- amaldagi buxgalteriya hisobi va hisoboti qoidalariga muvofiq buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini yuritish hamda Bankning yozma talabiga ko‘ra yoki O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan o‘z moliyaviy hisobotlarining yillik auditini va/yoki boshqa taftishini o‘tkazish.
- Qarz oluvchining moliyaviy ahvoli yomonlashuviga va Shartnoma bo‘yicha Bank oldidagi majburiyatlarni bajarmaslik xavfi yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan hech qanday majburiyatlarni zimmasiga olmaslik.
- Bank krediti bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarish uchun yetarli miqdorda, bunday ijrodan 5 (besh) bank kuni oldin, banklardagi o‘z hisobvaraqlarida budjet va uchinchi shaxslar oldidagi majburiyatlardan xoli bo‘lgan mablag‘larning minimal qoldig‘ini saqlab turish.

## **8. TOMONLARNING MAS’ULIYATLARI**

8.1. Bank ushbu Shartnoma bo‘yicha to‘lanmagan mablag‘larni qaytarishni, barcha hisoblangan foizlar va boshqa qo‘srimcha talablarni to‘lashni, shuningdek, Qarz oluvchining ish haqi, Qarz oluvchining boshqa pul mablag‘lari va uning boshqa likvidli mol-mulki hisobidan Qarz oluvchi tomonidan Bankka yetkazilgan barcha zararlar va ziyonlarning Qarz oluvchi tomonidan qoplanishini talab qilishga haqli.

8.2. Ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan hollarda Tomonlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

8.3. Agar Qarz oluvchi kechiktirilgan to‘lovlarni to‘lash majburiyatini kechiktirish yuzaga kelganidan keyin 2 (ikki) kalendar kun ichida to‘lamasa, Bank Qarz oluvchidan 50 000 (ellik ming) so‘m miqdorida jarima undirishga haqli.

8.4. Qarz oluvchi tomonidan kredit mablag‘laridan maqsadsiz foydalanish holatlari aniqlanganda Bank undan maqsadsiz foydalanilgan kredit summasining 10 foizi (o‘n foizi) miqdorida jarima undirish huquqiga ega. Jarimani to‘lash Qarz oluvchini ushbu Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

8.5. Kredit berish bo‘yicha majburiyatlar bajarilmagan yoki o‘z vaqtida bajarilmagan taqdirda, Bank Qarz oluvchiga bunday qoidabuzarlik sodir etilgan vaqtida O‘zbekiston Respublikasi hududida amalda bo‘lgan bazaviy hisoblash miqdorining 10 foizi miqdorida bir martalik jarima to‘lashi shart.

8.6. Bank va Qarz oluvchi ushbu Shartnomadan yoki u bilan bog‘liq holda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan barcha nizolarni ikki tomonlama muzokaralar yo‘li bilan hal qilishga harakat qiladi.

8.7. Agar nizo murosa yo‘li bilan hal etilmasa, u holda mazkur nizo Bankning ixtiyoriga ko‘ra:

- Bankning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan manzili yoki Qarz oluvchining yashash manzili bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy ishlari bo‘yicha tegishli sudida;
- yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda notarial ijro yozuvini olish orqali yakuniy hal qilinishi kerak. Notarial ijro yozuvini olish orqali qarzni undirishda Qarz oluvchi notarial ijro yozuvining haqiqiyligini tortishuvga o‘rin qoldirmaydigan tarzda tan oladi.

8.8. Bank va Qarz oluvchining ushbu shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik choralarini

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq qo‘llaniladi.

## **9. BOSHQA SHARTLAR**

9.1. Ushbu bilan Qarz oluvchi Bankka quyidagi xatti-harakatlarni amalga oshirish uchun so‘zsiz huquq va roziligini beradi:

9.2. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan qoidalar va nizomlarga muvofiq kreditga layoqatlilikni baholash maqsadida, Qarz oluvchining ushbu Shartnomada taqdim etilgan, shuningdek, Bankning ma’lumotlar bazasida va/yoki Kredit byurosining (keyingi o‘rinlarda “Byuro” deb yuritiladi) ma’lumotlar bazalarida saqlanayotgan ma’lumotlarini qayta ishlash. Qarz oluvchi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi ko‘zda tutilgan huquqlardan xabardor, unga ko‘ra Qarz oluvchining so‘rovi asosida Ma’lumotlarni qayta ishlovchi ma’lumotlarni to‘g‘rilashi, yangilashi, qo‘sishi, bloklashi, o‘chirishi yoki yo‘q qilishi shart, agar ular to‘liq bo‘lmasa, noaniq, eskirgan yoki qonunga xilof ravishda olingan va qayta ishlangan bo‘lsa. Ushbu bir martalik rozilik majburiyatlar bajarilgunga qadar yoki shartnomaga muddati tugagunga qadar amal qiladi.

9.3. Shuningdek, Bank Qarz oluvchining to‘lov qobiliyatini baholash jarayonida skoring modellarini qo‘llaganda, Qarz oluvchi haqidagi erkin/ochiq foydalanish mumkin bo‘lgan har qanday ma’lumotdan, shuningdek, bunday turdagи xizmatlar ko‘rsatuvchi ta’minotchilardan olingan ma’lumotlardan foydalanish huquqiga ega. Bunda mazkur ma’lumotlarni olish va ulardan foydalanish O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo‘lmasligi shart.

9.4. Qarz oluvchining telefon raqamlariga qo‘ng‘iroq qilish hamda ularni yozib olish, shuningdek, Qarz oluvchining ushbu Shartnomasi va BSh bo‘yicha majburiyatlarini bajarish masalasida Bankka ma’lum bo‘lgan Qarz oluvchining manzillari (rekvizitlari)ga xatlar, elektron xabarlar va SMS xabarlar yuborish;

9.5. Mazkur Shartnomasi va BSh bo‘yicha Qarz oluvchining majburiyatlarini bajarish masalasi yuzasidan Qarz oluvchi va kredit so‘rovnomasida ko‘rsatilgan aloqada bo‘ladigan shaxslar bilan muzokaralar (uchrashuvlar) o‘tkazish;

Qarz oluvchi tomonidan bank operatsiyasi jarayonida masofaviy aloqa kanallari orqali berilgan tasdiqlar bosma hujjatdagi qo‘l imzosi bilan bir xil yuridik ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu bilan birga, Tomonlar raqamli shaklda tuzilgan hujjatlar Qarz oluvchi tomonidan imzolangan bosma hujjatlar bilan bir xil yuridik kuchga ega ekanligini tan oladilar. Demak, raqamli shaklda tuzilgan hujjat Tomonlar o‘rtasida nizo kelib chiqishi uchun dastlabki shart sifatida ko‘rilishi mumkin emas.

9.6. Mikrokredit berish to‘g‘risidagi shartnomasi ushbu Shartnomasi masofaviy bank xizmati ko‘rsatish tizimi orqali tasdiqlangan vaqtidan boshlab tuzilgan hisoblanadi va Qarz oluvchi tomonidan o‘z majburiyatlarini to‘liq bajarilgunga qadar amal qiladi.

9.7. Onlayn mikroqarz to‘lov jadvali qayta rasmiylashtirilgan taqdirda, ilgari amalda bo‘lgan to‘lov jadvali bunday qayta rasmiylashtirish sanasidan boshlab avtomat ravishda o‘z kuchini yo‘qotadi.

9.8. Mazkur Shartnomasi “TBC Bank” ATBda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlarini ko‘rsatish Bosh Shartlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha holatlarda Tomonlar [www.tbcbusiness.uz](http://www.tbcbusiness.uz) saytida

joylashtirilgan Bosh Shartlar qoidalariga amal qiladilar.

## 10. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

QARZ OLUVCHI	BANK
<b>YaTT “Full_name”</b> <b>Manzil:</b> Tashkent sh. _____ <b>JSHSHIR:</b> _____ <b>h/r:</b> _____ <b>Bank:</b> “TBC Bank” ATB <b>Bank kodi:</b> 01180 <b>STIR:</b> 207 318 613 <b>Telefon:</b>  “full_name”	<b>“TBC Bank” ATB</b> <b>Manzil:</b> 100015, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Fidokor ko‘chasi, 10-B uy. “TBC Bank” ATBda, <b>Bank kodi:</b> 01180 <b>STIR:</b> 207 318 613 <b>IFUT:</b> 64190 <b>h/r:</b> _____ <b>Telefon:</b> +998787772727 <b>Elektron pochta:</b> contact@tcbank.uz  Boshqaruv Raisi:  Tetrashevili S. / _____